

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi: № <u>15</u> 2022 yil " <u>29</u> " <u>12</u>	"TASDIQLAYMAN" O'quv ishlari bo'yicha prorektor <u>Bozorov O.N.</u> " " " 2022 yil
---	--

"YER TUZISH ASOSLARI" FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300000	-	Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi:	310 000	-	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	5311500	-	Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish)

Jami o'quv soati:	104 soat
Shu jumladan	8-semestr
Ma'ruza	28 soat
Amaliy mashg'ulotlar	28 soat
Mustaqil ta'lim soati	48 soat

Qarshi-2022 y

Fanning ishchi o'quv dasturi Qarshi muhandislik – iqtisodiyot institutining tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

M.J. G'ofirov - QarMII "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrası katta o'qituvchisi.


Fanning ishchi o'quv dasturi "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrası yig'ilishida (bayon № 1, 22.08. 2022y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon № 1, 27.08 2022y.) va institut Uslubiy kengashida (bayon № , 2022y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:



Sh. Turdiyev

QMII Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasi raisi:



M.J. G'ofirov

"Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" Kafedra mudiri:



G' N. Aliqulov

Kirish

«Yer tuzish asoslari» nazariy fan bo'lib, unda yer tuzish ob'ektiv jarayon sifatida paydo bo'lganligi va jamiyat talablari asosida rivojlanishi, fanning asosiy qoidalari ochib beriladi. U yer tuzishning nazariy va uslubiy asoslarini, rivojlanish qonuniyatlarini, manbai, mazmuni, turlari, tamoyillari (prinsiplarini) yer tuzish va yer kadastrida hisobga olinadigan tabiiy va iqtisodiy omillarni, yer tuzishni rivojlanish bosqichlarini o'rganadi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad talabalar yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish masalalarining turli ijtimoiy iqtisodiy farmatsiyalaridagi yechilish uslublarini bilishi va yer tuzishning ob'ektiv jarayon sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishining ilmiy asoslarini chuqur o'zlashtirish va ulardan yer tuzishning amaliy masalalarini yechishda foydalana olishlari uchun ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - yer munosabatlari va yer tuzishning ilmiy rivojlanishini o'rganishdan, ilm - fan yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslanib yer tuzishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Yer tuzish asoslari» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr :

-yer fondi va yer tizimi, yer tuzishning rivojlanish qonuniyatlari, mazmuni va vazifalarini, yer tuzishning shakllari va tamoillarini, yer tuzishda xisobga olinadigan xususiyatlari tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari. O'zbekistonda yer tuzish va yer munosabatlarining yuzaga kelishi va davlat tomonidan tartibga solinishini *bilishi kerak*:

-yer fondi toifalarini aniqlash bo'yicha, yer tuzishning mazmuni va vazifalari, tamoillari, shakllari va turlarini aniqlash bo'yicha, yer tuzishda yerning xususiyatlari, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olish bo'yicha, yer munosabatlari rivojlanishining bosqichlarini farqlash bo'yicha ko'nikmalarga *malakaga ega bo'lishi kerak*.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Yer tuzish asoslari fani VIII semestrda o'qitiladi. Bu fanni o'zlashtirish uchun Yer kadastr, Geodeziya, Oliy geodeziya, Kartashunoslik va Ekologiya fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Sug'oriladigan yerlardan to'g'ri foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Halq xo'jaligining turli sohalarida yer tanlash va yer ajratib berish, ekin turlarini joylashtirish xaritalarini ishlab chiqish bugungi kun talabidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, stendlar maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test

topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari

T/r	Mavzular nomi	Soat
1	Yer munosabatlari va yerdan foydalanishning nazariy asoslari	2
2	Feodal yer egaligi va yerdan foydalanish shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi	2
3	1917 yildagi yer to'g'risida «Dekret» va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi. O'zbekistonda 1917-27 yillarda yer - suv islohati	2
4	Ikkinchi jahon urushigacha va urushidan keyingi bo'lgan davrdagi agrar o'zgarishlar hamda yerdan foydalanuvchilarni shakllantirish	2
5	1990 yilda «Yer to'g'risidagi» qonunning qabul qilinishi natijasida yer munosabatlari va yerdan foydalanishning o'zgarishi	2
6	Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yer munosabatlarini yanada takomillashtirish	2
7	Yer tabiiy resurs va ishlab chikarish vositasi	2
8	Suv - sug'orma dehqonchilikda asosiy ishlab chiqarish vositasi	2
9	Yer tuzumi va yer islohati. Yer resurslari va ulardan foydalanish	2
10	Yer tuzishning rivojlanish qonuniyatlari	2
11	Yer tuzish turlari va tamoyillari (prinsiplari)	2
12	Yerning yer tuzishda hisobga olinadigan xususiyatlari va hududning tabiiy sharoiti	2
13	Yer tuzishda hisobga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar	2
14	Yer tuzish tizimi	2
	Jami:	28

Amaliy mashg'ulotlar

T/r	Mavzular nomi	Soat
1	Yer munosabatlari va yerdan foydalanishning nazariy asoslari	2
2	Feodal yer egaligi va yerdan foydalanish shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi	2
3	1917 yildagi yer to'g'risida «Dekret» va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi. O'zbekistonda 1917-27 yillarda yer - suv islohati	2
4	Ikkinchi jahon urushigacha va urushidan keyingi bo'lgan	2

	davrdagi agrar o'zgarishlar hamda yerdan foydalanuvchilarni shakllantirish	
5	1990 yilda «Yer to'g'risidagi» qonunning qabul qilinishi natijasida yer munosabatlari va yerdan foydalanishning o'zgarishi	2
6	Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yer munosabatlarini yanada takomillashtirish	2
7	Yer tabiiy resurs va ishlab chikarish vositasi	2
8	Suv - sug'orma dehqonchilikda asosiy ishlab chiqarish vositasi	2
9	Yer tuzumi va yer islohati. Yer resurslari va ulardan foydalanish	2
10	Yer tuzishning rivojlanish qonuniyatlari	2
11	Yer tuzish turlari va tamoyillari (prinsiplari)	2
12	Yerning yer tuzishda hisobga olinadigan xususiyatlari va hududning tabiiy sharoiti	2
13	Yer tuzishda hisobga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar	2
14	Yer tuzish tizimi	2
	Jami:	28

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

№	Mavzular nomi	Dars soatlari hajmi
1	O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi».	12
2	O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»	12
3	O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»	12
4	O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» qonuni	12

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom (Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

«Yer tuzish asoslari» fanidan talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi:

Oraliq baholash (OB) - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyixasi,

ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy baxolash (YAB) - semestr yakunida talabaning muayyan fan buyicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Talabaning fan buyicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho:

xulosa va qaror qabul qilish;
ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho:

dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.

**Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv
qo'llanmalar ro'yxati**

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Avezboyev S, Volkov S.N. «Yer tuzishning ilmiy asoslari».-T Yangi asr avlodi», 2002 y
2. Avezboyev S., Karaboyeva T. «Yer tuzish» T.- «ToshDAU» 2005.
3. Tolipov G.A. va boshqa. - «O'zbekiston Respublikasi yer kadastrı». - T. 1994
4. Yer tuzish asoslari (ma'ruza matnlari) Q. QarMII 2018 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Avezbayev S, Troiskiy V.P.Yer tuzishning ilmiy asoslari (uslubiy qullanma) - Toshkent TIIMSX, 1996-70 b

6. G'ofirov M.J. Yer tuzish asoslari fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2018 yil.-71b
7. G'ofirov M.J. Yer tuzish asoslari fanidan amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. Qarshi 2018 yil.-76b

Internet saytlari.

8. www.ziynet.uz;
9. www.lex.uz
10. www.bilim.uz